QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180700 Kitob tumani Katta yo‘l ko‘chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2022 - yil 8 - sentabr 423-4-62-Q/22 Kitob tuman hokimligi

4K-337 Kitob-Beshterak-Chiroqchi, 4K-302 Varganza-Hazrati Bashir avtomobil yo‘llarida avtomobillar qatnovini tartibga keltirish, texnika xavfsizligini saqlash, tirbandlikni oldini olish maqsadida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosini ta’minlash va 4K-337 Kitob-Beshterak-Chiroqchi, 4K-302 Varganza-Hazrati-Bashir avtomobil yo‘llarida avtomobillar qatnovini tartibga keltirish, texnika xavfsizligini saqlash, tirbandlikni oldini olish, aholi hamda tadbirkorlarga qulayliklar yaratilishni ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (S.Sultonov)ga:

- 4K-337 Kitob-Beshterak-Chiroqchi avtomobil yo‘lining 1-2 km orlig‘ida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorining 1-ilovasiga asosan 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish;

- 4K-302 Varganza-Hazrati-Bashir avtomobil yo‘lining 17 kmda 3.1 “Kirish taqiqlangan”, 7.4.2 va 7.4.4 qo‘shimcha axbarot ishora hamda 3.20 “Quvib o‘tish taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman IIB YXXG (M.Sultonov)ga:

- 4K-337 Kitob-Beshterak-Chiroqchi, 4K-302 Varganza-Hazrati Bashir avtomobil yo‘llarida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatilishi munosobati bilan avtomobillar qatnovini tartibga keltirish;

- tirbandlikni oldini olish;

- aholi havfsizligini ta’minlash;

- texnika xavfsizligini saqlash;

- transport vositalarini o‘rnatilgan yo‘l belgilari asosida harakatlanishini qat’iy nazratga olsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Turayev zimmasiga yuklatilsin.

Kitob tuman hokimi **Pardayev U.B**